

“RAQAMLI HUKUMAT LOYIHALARINI BOSHQARISH MARKAZI” DAVLAT MUASSASASINING RAQAMLI XIZMATLAR FAOLIYATINI BAHOLASH

Xakimdjanova Dildora Kamilevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasida katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0000-7842-9120
E-mail: dxakimdjanova80@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining raqamli xizmatlar faoliyati samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari, elektron platformalar faoliyati, ERP va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijalari o‘rganilgan. My.gov.uz portali xizmatlari, foydalanuvchi murojaatlari va xalqaro reytinglar asosida raqamli boshqaruv tizimining rivojlanish dinamikasi baholangan. Tahlillar natijasida raqamli xizmatlarning tezkorligi, shaffofligi va iqtisodiy samaradorligi oshgani aniqlangan. AKT sohasida bandlikning ortishi, xizmatlar ko‘lamining kengayishi va davlat xizmatlari sifatining yaxshilangani asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va xizmatlar integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli hukumat, elektron xizmatlar, sun’iy intellekt, ERP tizimi, My.gov.uz, AKT, raqamli transformatsiya, xizmatlar samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, elektron boshqaruv.

Аннотация

В данной статье проанализирована эффективность деятельности государственного учреждения «Центр управления проектами цифрового правительства» в сфере цифровых услуг. В исследовании изучены процессы цифровизации государственных услуг, функционирование электронных платформ, а также результаты внедрения ERP и технологий искусственного интеллекта. На основе данных портала My.gov.uz, пользовательских обращений и международных рейтингов оценена динамика развития системы цифрового управления. Результаты анализа показали повышение оперативности, прозрачности и экономической эффективности цифровых услуг. Также обоснованы рост занятости в сфере ИКТ, расширение спектра услуг и повышение качества государственных сервисов. По итогам исследования разработаны предложения по развитию цифровой инфраструктуры, расширению внедрения инновационных технологий и усилению интеграции цифровых услуг.

Ключевые слова: цифровое правительство, электронные услуги, искусственный интеллект, ERP-система, My.gov.uz, ИКТ, цифровая трансформация, эффективность услуг, инновационные технологии, электронное управление.

Abstract

This article analyzed the efficiency of digital service activities of the “Digital Government Projects Management Center” state institution. The research examined the digitalization processes of public services, the operation of electronic platforms, and the implementation results of ERP systems and artificial intelligence technologies. The development dynamics of the digital governance system were evaluated based on My.gov.uz portal services, user applications, and international rankings. The analysis identified improvements in the speed, transparency, and economic efficiency of digital services. The study also confirmed the growth of employment in the ICT sector, the expansion of digital services, and the improvement of public service quality. Based on the research findings, recommendations were developed for strengthening digital infrastructure, expanding innovative technologies, and improving integration mechanisms of digital services.

Keywords: digital government, electronic services, artificial intelligence, ERP system, My.gov.uz, ICT, digital transformation, service efficiency, innovative technologies, e-governance.

KIRISH

Jahon hamjamiyatining barcha mamlakatlarida raqamli hukumat xizmatlarini zamon talablari asosida taklif etish, shuningdek, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish orqali aholiga yuqori sifatli, xavfsiz va foydalanuvchiga moslashtirilgan servislarni taqdim etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bu esa zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar hukmronlik qilayotgan, Big Data, sun‘iy intellekt va IoT kabi yechimlar tez sur‘atlar bilan joriy etilayotgan bir sharoitda, raqamli hukumat xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatida integratsiya va diversifikatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish, ularni samaradorlik mezonlari orqali baholash hamda strategik yondashuvlar asosida rivojlantirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu bois, elektron hukumat tizimi doirasida xizmatlarni diversifikatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish, ularning amaliyotga joriy etilish samaradorligini baholash, integratsiyalashgan platformalar orqali ma‘lumotlar almashinuvi tezligini oshirish va foydalanuvchi markazlashgan interfeyslar yaratish bugungi kunning ilmiy-e‘tiborga molik eng muhim masalalaridan biriga aylanmoqda. Natijada, davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi jarayonida yuqori sifat, tezkorlik va xavfsizlik mezonlariga mos keluvchi, barqaror hamda yuqori samarali raqamli xizmatlar portfelini shakllantirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning strategik zarurati sifatida dissertatsiya mavzusining dolzarbligini va ilmiy ahamiyatini to‘liq asoslab bermoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida barqaror rivojlantirish sharoitida “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasida¹ raqamli infratuzilmani kengaytirish, xizmatlar sektorining innovatsion o‘shirishini jadallashtirish hamda aholiga taqdim etilayotgan servislarni sifatini tubdan yaxshilash strategik ustuvor yo‘nalish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

sifatida belgilangan. Shu maqsadda, davlat boshqaruvi va aloqa xizmatlarida keng qamrovli transformatsiya olib borilmoqda: buning natijasida, elektron davlat xizmatlari kengaytirilmoqda, mahalliy va hududiy darajalarda raqamli xizmat ko'rsatuvchi tizimlar joriy etilmoqda, shuningdek, xizmatlar portfeli diversifikatsiyalashuvi yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, maqsadlar qatorida "2030-yilga qadar respublika bo'ylab mobil aloqa, keng polosali internet, raqamli moliyaviy xizmatlar va virtual platformalar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar ulushining 60 foizdan ortiq bo'lishi"¹ belgilangan bo'lib, u raqamli tendensiyalarni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozirgi davrda davlat xizmatlari samaradorligini oshirish uchun interfeyslar birlashtirilishi, ma'lumot almashinuvi yagona platformalarda amalga oshirilishi va xizmatlar aholining ehtiyojlariga mos ravishda yaratilishi lozim"²- degan fikrlar ushbu strategiyaning amaliy ko'lamini yanada mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, aloqa va raqamli davlat xizmatlarini diversifikatsiyalash strategiyasini takomillashtirish, yangi xizmat yo'nalishlarini joriy etish, interaktiv va foydalanuvchi markazlangan yechimlarga o'tish, hamda ushbu yo'nalishlarning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifasiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyalar va texnologik rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. J. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, yangi texnologiyalar va innovatsion faoliyat iqtisodiyot rivojlanishining muhim omili ekanligini ta'kidlagan.

P. Drucker o'z tadqiqotlarida innovatsion boshqaruv va strategik rejalashtirish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining muhim sharti ekanligini qayd etgan. Uning fikricha, innovatsiyalarni boshqarish zamonaviy tashkilotlar rivojlanishining muhim komponenti hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining boshqaruv tizimlarida qo'llanilishi alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash imkonini berib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatida Big Data, bulutli texnologiyalar, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida ushbu texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari ko'plab zamonaviy tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, K. Schwab o'zining "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasida sun'iy intellekt, robototexnika, katta ma'lumotlar va raqamli platformalar global iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/4352>

² <https://president.uz/oz/lists/view/1620>

Uning fikricha, ushbu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki boshqaruv tizimlarini ham tubdan o'zgartirib, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy tashkilotlar innovatsion texnologiyalarni faol joriy etish orqali o'z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishi zarur.

Raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish hamda yangi xizmat turlarini yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosidagi tizimlar yordamida mijozlar xulq-atvori va talab tendensiyalarini aniqlash mumkin bo'ladi. Natijada korxonalar xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada optimallashtirib, bozordagi o'z raqobat ustunligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash tahlili hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish imkoniyatlari o'rganildi hamda raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish omillari aniqlab berildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida analitik yondashuv asosida raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligini baholash ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi. Xususan, xizmat ko'rsatish tezligi, mijozlar qoniqish darajasi, operatsion xarajatlar hajmi hamda texnologik innovatsiyalarni joriy etish darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida korxonalar faoliyatining samaradorligi baholandi. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish korxonalar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida xorijiy tajribalar ham o'rganilib, rivojlangan davlatlarda raqamli xizmatlar ko'rsatish sohasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilindi. Ushbu tajribalar asosida O'zbekistonda raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarining sifatini oshirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatlari aniqlandi.

Raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish quyidagi yo'nalishlarda samarali natija beradi:

- ma'lumotlar tahlili va prognozlash tizimlarini rivojlantirish;
- biznes jarayonlarini avtomatlashtirish;

- mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish va xizmatlarni optimallashtirish;
- raqamli platformalar va elektron xizmatlarni rivojlantirish;
- korxonalar resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash.

Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida xizmat ko'rsatish jarayonlari yanada tezkor va samarali tashkil etiladi. Masalan, mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida mijozlarning xulq-atvori tahlil qilinib, xizmatlarni individuallashtirish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalar operatsion xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda xizmatlar tezkorligini ta'minlashga yordam beradi. Natijada raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar raqobatbardoshligi ortadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda strategik qarorlar qabul qilish jarayonini ham sezilarli darajada takomillashtiradi. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvi orqali korxonalar bozor tendensiyalarini aniqlash, xizmatlarga bo'lgan talabni prognozlash hamda kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirib, resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar raqamli xizmatlar ko'rsatish jarayonida mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, chatbotlar, virtual yordamchilar hamda avtomatlashtirilgan mijozlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtiradi va mijozlar murojaatlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Natijada mijozlar qoniqish darajasi oshib, korxonalar xizmatlarining sifati va ishonchligi yanada mustahkamlanadi.

Raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish innovatsion xizmat turlarini yaratish va yangi biznes modellarini shakllantirish imkonini beradi. Raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar hamda ma'lumotlar tahlili asosidagi tizimlar yordamida xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish mumkin. Bu esa korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishiga hamda ularning global raqobat muhitida ustunlikka erishishiga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi tizimlarini raqamlashtirish fuqarolar uchun qulaylik yaratishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" Davlat muassasasi bu jarayonda yetakchi rol o'ynab, O'zbekistonda raqamli xizmatlarni rivojlantirishning bosh strategik markaziga aylangan. Ushbu markaz mamlakatda davlat xizmatlarining zamonaviy raqamli platformalar orqali taqdim etilishini ta'minlash, texnologiyalarni joriy etish va xizmatlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan faoliyat olib boradi. Xizmatlarning qulayligi va tezkorligi, ayniqsa, so'nggi yillarda aholi va biznes vakillari uchun sezilarli o'zgarishlar keltirdi. Fuqarolar endi turli davlat xizmatlarini masofadan turib, qog'ozboziksiz va shaffof tarzda olish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa davlat xizmatlarini ko'rsatishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Markazning iqtisodiy samaradorligi uning xizmat ko'rsatish sohasidagi muvaffaqiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash va ulardan foydalanishni kengaytirish orqali davlat byudjetiga qo'shilgan hissa sezilarli darajada oshdi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish natijasida ayrim xizmatlarga bo'lgan xarajatlar qisqarib, Markazning iqtisodiy faoliyati yanada barqaror tus oldi. Shu bilan birga, Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan texnologik innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki xizmatlardan foydalanish qulayligini ham oshirdi. Ushbu jarayonlarda raqamli infratuzilmaning rivoji, malakali mutaxassislarni jalb qilish va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish muhim o'rin tutadi.

Raqamli xizmatlar faoliyatini baholashda tezkorlik, shaffoflik va qulaylik kabi mezonlar asosiy e'tibor markazida turadi. Xizmatlardan foydalanishning geografik va ijtimoiy qamrovi ham Markaz faoliyatining samaradorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ammo mavjud infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmaganligi va xizmatlarning qishloq joylarda ommaviylikni oshirish zarurligi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, fuqarolarni raqamli savodxonlikka o'rgatish va texnologik innovatsiyalarni keng miqyosda tatbiq etish zarur. Bunday yondashuvlar "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM faoliyatining samaradorligini oshirish va mamlakatning raqamli transformatsiyasiga hissa qo'shish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvi tizimlarining moslashuvchanligi va innovatsion salohiyatini oshirish masalasi mamlakatlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, "Raqamli hukumat" konsepsiyasi - bu nafaqat texnologik modernizatsiya, balki institutsional samaradorlik, fuqarolik ishtirokchiligi va iqtisodiy unumdorlikni muvozanatli rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks davlat siyosatidir. O'zbekiston Respublikasida mazkur yondashuv "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasining¹ 1-ustuvor yo'nalishi - "Inson qadri" tamoyilining amaliy ifodasi sifatida faol ilgari surilmoqda.

Mazkur strategiya doirasida "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi tomonidan tizimli va samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, so'nggi besh yil davomida bu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishildi. 2020-2024 yillar mobaynida amalga oshirilgan 300 dan ortiq raqamli hukumat loyihalari mazkur islohotlarning nafaqat texnik, balki makroiqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida shakllanganini ko'rsatmoqda. Jumladan, 204 ta loyiha muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lib, ularning 65 tasi davlat boshqaruvi tizimiga, 23 tasi iqtisodiyotning real sektoriga, 116 tasi hududiy infratuzilma va xizmat ko'rsatish mexanizmlariga yo'naltirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>

1-jadval
Raqamli hukumat loyihalari statistikasi, 2020-2024 yillar¹

Yil	Umumiy loyihalar soni	Bajarilgan loyihalar	Davlat boshqaruvi	Iqtisodiyotning real sektori	Hududiy chora-tadbirlar
2020	60	40	12	6	22
2021	90	70	20	10	40
2022	130	100	30	15	55
2023	180	150	45	20	85
2024	300	204	65	23	116

2020-2024 yillar oralig'ida raqamli hukumat loyihalari sonining 5 barobarga o'sishi (60 tadan 300 tagacha) mamlakatda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlari izchil bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab yillik loyihalar sonining 40-50 foiz atrofida o'sib borayotgani tizimlashtirilgan yondashuv, siyosiy irodaning mustahkamligi va strategik rejalashtirishning muvaffaqiyatini anglatadi.

Bu o'sish faqat miqdoriy ko'rsatkich emas, balki texnologik yetuklik darajasining ortayotganidan, elektron xizmatlar spektrining kengayganidan va muvofiqlashtirilgan loyiha boshqaruvi amaliyotining shakllanganidan dalolat beradi. Bu davrda raqamli boshqaruvning inklyuzivlik va ochiqlik kabi demokratik komponentlari ham kuchayganini taxmin qilish mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, umumiy loyihalarning katta qismi (204 ta yoki 68%) muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo'lib, ularning taqsimoti strategik ustuvorliklarga mos ravishda tuzilgan. Davlat boshqaruvi yo'nalishiga to'g'ri kelgan 65 ta loyiha - normativ-huquqiy raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan xizmatlar, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish orqali boshqaruv apparatini soddalashtirishga xizmat qilgan. Real sektor tarmoqlaridagi 23 ta loyiha esa ishlab chiqarish samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish va biznes yuritish qulayligiga ta'sir ko'rsatgan. Eng katta ulush - 116 ta loyiha hududiy miqyosda amalga oshirilgan bo'lib, bu raqam «Raqamli hudud» dasturining natijadorligini tasdiqlaydi. Mahalliy infratuzilmalarning raqamlashtirilishi aholi bilan interaktiv muloqotni kuchaytirib, servis sifatini oshirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda raqamli hukumat loyihalarining barqaror o'sib borayotgan sur'atlari - BMT va Jahon banki tomonidan shakllantirilgan elektron boshqaruv reytinglarida yuqori ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanmoqda. Xususan, 2022-yildan keyingi davrda BMT reytingida O'zbekiston 18 pog'onaga ko'tarilib, 193 mamlakat ichida 69-o'ringa chiqqani - aynan shu davrdagi loyihaviy tashabbuslarning sifatli bajarilganini isbotlaydi. Loyihalarning mazkur yo'nalishlarda differensiallashtirilgan holda taqsimlanishi davlat raqamli transformatsiyasi jarayonida siyosiy prioritetlar, institutsional imkoniyatlar va iqtisodiy kontekst bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Bu esa "top-down" strategik qarorlar va "bottom-up" lokal ehtiyojlarning uyg'unlashgan modelini vujudga keltirgan.

¹ Raqamli hukumat markazi hisobotlari, 2024 (<https://my.gov.uz/uz/static/view/pages/about>)

My.gov.uz portali orqali ko'rsatilayotgan raqamli davlat xizmatlari va foydalanuvchi arizalari statistikasi - raqamli hukumat islohotlarining amaliy natijasini ifodalovchi eng muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Chunki, portalga integratsiya qilingan xizmatlar sonining yildan-yilga ortib borayotgani (2020-yildagi 420 tadan 2024-yilda 664 tagacha) fuqarolarning davlat xizmatlariga bo'lgan raqamli ishonchini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga kirish imkoniyatining kengayganini va raqamli savodxonlik darajasining o'sayotganini anglatadi. Ayniqsa, bolalar nafaqasi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va milliy sertifikat olish kabi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega sohalarda yuz minglab arizalarning onlayn tarzda ko'rib chiqilayotgani davlat apparatini fuqaroga yaqinlashtirishda, xizmatlar tejamkorligi va shaffofligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, 1-jadvalda aks ettirilgan my.gov.uz faoliyati bo'yicha statistik tahlil - nafaqat texnologik quvvat, balki fuqarolik ishtiroki va davlatga bo'lgan ishonchni baholovchi o'lchov vositasi sifatida ham g'oyat ahamiyatlidir.

2-jadval

My.gov.uz xizmatlari va foydalanuvchi arizalari (2020-2024 yillar sonda)¹

Yil	Yangi xizmatlar	Jami xizmatlar	Bolalar nafaqasi arizalari	Kasallik varaqalari	Milliy sertifikat arizalari
2020	35	420	80000	30000	5000
2021	40	460	160000	90000	15000
2022	55	515	280000	160000	26000
2023	70	585	450000	280000	40000
2024	94	664	627000	420000	62000

2020-yildan 2024 yilgacha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (My.gov.uz) joriy etilgan xizmatlar soni 420 tadan 664 taga yetib, 58 foizga o'sish kuzatildi. Bu izchil dinamik o'zgarishlarni shakllantirishda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" Davlat muassasasi tomonidan xizmatlar transformatsiyasini standartlashtirish, texnik reglamentlar ishlab chiqish va sektoral integratsiyani muvofiqlashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar muhim o'rin tutdi. Aynan Markaz tashabbusi bilan xizmatlar iqtisodiyoti paradigmasiga moslashtirilgan tartibga solish modellarining joriy qilinishi, byurokratik cheklovlarning qisqartirilishi va davlat - fuqaro o'rtasidagi raqamli o'zaro aloqaning iqtisodiy asoslari mustahkamlandi. Natijada, raqamli xizmatlarning iqtisodiyotga integratsiyalashgan shakli yaratilgan bo'lib, bu raqamli boshqaruv xarajatlarining kamayishi va xizmatlar samaradorligining ortishiga olib keldi.


"Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali bir xizmatga to'g'ri keladigan o'rtacha tranzaksion xarajatlar 30-70 ming so'mni tashkil qiladi"². Ushbu ko'rsatkichni 2024-yildagi 1 milliondan ortiq ariza statistikasi bilan solishtiradigan bo'lsak, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan xizmat ko'rsatish standartlari, xizmatlar arxitekturasi va protsessual avtomatlashtirish vositalari orqali davlat byudjeti kamida 35-40 milliard so'm tejalgan

¹ my.gov.uz portali statistikasi, 2024 (<https://my.gov.uz>)

² Ebadi B., Carvalho J., Tavares A. Transformation for our Shared Goals. - 2024.

bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, aynan Markaz tashabbusi bilan axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiya, metama’lumotlar almashinuvi va platforma o‘zaro ishlovchanligini ta’minlovchi texnik muvofiqlik natijasida xizmatlar sifati va tezligi oshdi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki institutsional jihatdan ham O‘zbekistonning elektron boshqaruv tizimi raqamli yadroga ega bo‘lgan strategik markazga tayanayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur raqamli xizmatlar infratuzilmasining jadallik bilan kengayib borishi, ayniqsa foydalanuvchilarning real sohalardagi ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy xizmatlar segmentida, davlat muassasalarining ichki boshqaruv tizimlarini optimallashtirish zaruratini keskin kun tartibiga olib chiqdi. Aynan shu nuqtai nazardan, raqamli xizmatlarni barqaror, tejamkor va strategik samaradorlik asosida boshqarishning kalit omili sifatida ERP (Enterprise Resource Planning) va korporativ IT yechimlari joriy etilmoqda. “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” tomonidan ishlab chiqilgan va pilot tarzda joriy etilgan ERP loyihalari davlat tashkilotlarida ish jarayonlarining raqamli modellashtirilishini, resurslar harakatining shaffof monitoringini va qaror qabul qilish tezligini ta’minlash imkonini berdi. Bu texnologik yondashuv nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytirish va ta’minot zanjirlarini optimallashtirishga, balki statistik tahlil asosida raqamli xizmatlar taklifini foydalanuvchi talablariga mos ravishda moslashtirishga ham imkon yaratmoqda. Shu bois, quyida keltiriladigan ERP va IT loyihalari samaradorligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar - davlat xizmatlarining ichki transformatsiyasi jarayonining iqtisodiy va texnik ustuvorliklarini empirik asosda baholash zaruratidan kelib chiqadi (1-rasm).



1-rasm. “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” Davlat muassasasining xizmat ko‘rsatish faoliyatida ERP va IT loyihalari samaradorligi¹

¹ Raqamli texnologiyalar vazirligi va UzTongNong ERP hisobotlari, 2024

1-rasmda keltirilgan asosiy ko'rsatkichlardan biri - operatsion xarajatlarning 23% ga qisqarishi davlat muassasalari tomonidan ichki boshqaruv jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligining oshganini anglatadi. Bu ko'rsatkich - mehnat unumdorligining ko'tarilishi, takroriy harakatlarning avtomatlashtirilishi va xodimlar sonining optimallasuvi evaziga shakllangan. Aynan "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan ERP integratsiyasi asosida tashkilotlar o'zining moliyaviy, insoniy va texnik resurslarini yagona elektron platformada boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ma'muriy xarajatlar keskin kamaydi, byudjet mablag'larining oqilona ishlatilishi ta'minlandi. Davlat moliyasi uchun bu, xususan, byudjet taqchilligini qisqartirish va ijtimoiy sohalarga yo'naltiriladigan mablag'larni ko'paytirish imkoniyatini yaratdi.


Arizalar soni bo'yicha statistik ko'rsatkichlar, xususan 2024-yilda 627 mingta bolalar nafaqasi, 420 mingta kasallik varaqasi va 62 mingdan ortiq milliy sertifikat arizalari, fuqarolarning davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchi oshganini ko'rsatadi. Bu jarayonni tizimli ravishda boshqarish va davlat xizmatlarining raqamli taqsimotini optimallashtirish borasida "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" muassasasining axborot arxitekturasini modullashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini indikatorlar asosida tahlil qilish va real vaqt rejimida monitoring mexanizmlarini joriy etishdagi institutsional roli muhim bo'ldi. Bu orqali raqamli xizmatlar orqali taqdim etilgan har bir ariza nafaqat texnik, balki iqtisodiy qiymatga ega bo'lib, byudjet xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish, resurs taqsimotida shaffoflikni ta'minlash va ijtimoiy ehtiyojlarni aniq identifikatsiya qilish imkonini berdi. Demakki, raqamli xizmatlar, ayniqsa ijtimoiy transferlar bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar, davlat moliyasida samarali mexanizmga aylanmoqda.

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali bir xizmatga to'g'ri keladigan o'rtacha tranzaksion xarajatlar 30-70 ming so'mni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichni 2024-yildagi 1 milliondan ortiq ariza statistikasi bilan solishtiradigan bo'lsak, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan xizmat ko'rsatish standartlari, xizmatlar arxitekturasini va protsessual avtomatlashtirish vositalari orqali davlat byudjeti kamida 35-40 milliard so'm tejalgan bo'lishi mumkin.

Markaz tashabbusi bilan axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya, metama'lumotlar almashinuvi va platforma o'zaro ishlovchanligini ta'minlovchi texnik muvofiqlik natijasida xizmatlar sifati va tezligi oshdi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki institutsional jihatdan ham O'zbekistonning elektron boshqaruv tizimi raqamli yadroga ega bo'lgan strategik markazga tayanayotganini tasdiqlaydi. Bu o'z navbatida mamlakatimizning raqamli reytingini yanada ko'rsatkichlarining balandlashiga ta'sir ko'rsatib, xalqaro reytingda egallayotgan o'rniga ko'ra raqamli mamlakat sifatida nufuzini oshishiga xizmat qilmoqda (2-rasm).

2-rasmda keltirilgan O'zbekistonning 2020-2024 yillarda xalqaro raqamli reytinglardagi o'rniga oid ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilinadigan bo'lsa, mamlakatda so'nggi yillarda raqamli boshqaruvning evolyutsion o'zgarishi va strategik o'sishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, BMTning E-Hukumat reytingida O'zbekistonning o'zni 2020-yildagi 87-o'ringan 2024-yilda 30-o'ringa keskin yaxshilanishi davlat

boshqaruvida raqamlashtirishning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat (1-rasmda keltirilgan) “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” tomonidan ERP tizimlari asosida operatsion xarajatlarning 23 foizga qisqarishi, mehnat unumdorligining oshishi va takroriy funksiyalarning avtomatlashtirilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Davlat muassasalari tomonidan yagona elektron platforma orqali moliyaviy, insoniy va texnik resurslarni boshqarish imkoniyati xalqaro reytinglardagi ijobiy o‘zgarishlarga xizmat qilgan.



2-rasm. O‘zbekiston xalqaro raqamli reytinglardagi o‘rni¹, 2020-2024 yillar

Jahon bankining Davlat xizmati bo‘yicha reytinglarida ham barqaror ijobiy dinamika kuzatilgan bo‘lib, 2020-yildagi 80-o‘rindan 2024-yilda 43-o‘ringa ko‘tarilishi davlat xizmatlarining sifati, tezligi va qulayligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar samarasidir. Shu jihatdan, “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish Markazi” tomonidan joriy etilgan axborot arxitekturasi modullashtirilganligi, xizmat ko‘rsatish indikatorlari asosida tahlil qilish tizimi va real vaqt rejimida monitoring mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etgan. 2024-yilda 627 mingta bolalar nafaqasi, 420 mingta kasallik varaqasi va 62 mingdan ortiq milliy sertifikat arizalarining raqamli ko‘rinishda ko‘rib chiqilishi davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchning oshganini, hamda xizmatlarning institutsional jihatdan mukammallashtirilganini ko‘rsatadi.

Jahon banki tomonidan Innovatsiya bo‘yicha berilgan baholarda esa keskin pasayish kuzatilmoqda: 2020-yildagi 69-o‘rin 2024-yilga kelib atigi 4-o‘ringa tushgan. Bu salbiy tendensiya O‘zbekistonning innovatsion infratuzilmasi, patent va intellektual mulkni tijoratlashtirishdagi sustkashlik, shuningdek, ilm-fan bilan ishlab chiqarish

¹ BMT e-Government Survey 2024, Jahon Banki GovTech Report, Open Data Inception (<https://publicadministration.un.org>)


oʻrtasidagi integratsiyaning hali yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmaganini anglatadi. Shu bois, innovatsion reytingni tiklash uchun kelgusi yillarda ilmiy-tadqiqot institutlari, startaplar va texnoparklar salohiyatidan keng foydalanish, ularni raqamli xizmatlar bilan integratsiyalash zarur. Ayni paytda mavjud resurslar, ayniqsa ERP asosidagi boshqaruv tizimlari, innovatsion mahsulotlarni yaratish va joriy etish uchun kuchli zaminda boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Open Data (ochiq manbalar soni) boʻyicha koʻrsatkichlar mutanosib tarzda ortib bormoqda - 2020-yildagi 65 ta ochiq manba 2024 yilda 124 taga yetgan. Bu, oʻz navbatida, davlat maʼlumotlarining shaffofligini, fuqarolik jamiyati va biznes subyektlari bilan ochiq hamkorlik tamoyilini mustahkamlashni anglatadi. Ochiq maʼlumotlar asosida xizmatlar arxitekturasi shakllantirish, big data va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu jihatdan, xizmatlar tranzaksion xarajatlarini kamaytirish orqali 2024-yilda byudjetga 35-40 milliard soʻm miqdorida tejalgan mablagʻlar nafaqat iqtisodiy, balki institutsional samaradorlikni ham belgilaydi.

Biroq, Open Data ning global reytingida Oʻzbekistonning oʻrni 2020-yildagi 35-oʻrindan 2024-yilda 4-oʻringa tushgan boʻlib, bu koʻrsatkichda pasayish kuzatilmoqda. Ushbu salbiy dinamika ochiq maʼlumotlar sifati, formatlari va ularning amaliy qoʻllanish imkoniyatlari bilan bogʻliq muammolar mavjudligini koʻrsatadi. Ochiq maʼlumotlar real sektor va xizmatlar ekotizimida keng joriy etilmasa, ularning faqat son jihatdan ortishi sifat jihatidagi reytingga taʼsir etmaydi. Shuning uchun xizmatlar orasidagi texnik muvofiqlik, metamaʼlumotlar almashinuvi va ularni iqtisodiy natijalarga yoʻnaltirish boʻyicha islohotlarni chuqurlashtirish talab etiladi.

“Oʻzbekistonda raqamli xizmatlar koʻrsatuvchi korxonalar faoliyatini oshirish” masalasi boʻyicha xalqaro reytinglar asosida olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, raqamli transformatsiya boʻyicha izchil yondashuv natijasida baʼzi koʻrsatkichlar keskin yaxshilangan. Jumladan, E-Hukumat va davlat xizmati reytinglarining oʻsishi davlat boshqaruvining elektronlashuviga ijobiy baho berilayotganini koʻrsatsa, innovatsiya va ochiq maʼlumotlar boʻyicha barqaror rivojlanish uchun yana koʻplab institutsional va texnologik chora-tadbirlar zarurligini koʻrsatadi.

2010-2024-yillar oraligʻida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida band boʻlganlar sonining dinamikasi chuqur tahlil qilinsa, Oʻzbekistonda raqamli xizmatlar koʻrsatuvchi korxonalar faoliyatining bosqichma-bosqich kengaygani yaqqol koʻzga tashlanadi. Grafikdan koʻrinib turibdiki, 2010 yildagi 53 ming nafar bandlik koʻrsatkichi 2024 yilda 98 ming nafarga yetgan. Bu jarayon bir tekis oʻsish boʻlmagan, ayrim yillarda pasayish (xususan, 2020 yilda) va soʻnggi yillarda keskin sakrashlar bilan tavsiflanadi. Bunday oʻzgarishlar iqtisodiy, texnologik va siyosiy omillar bilan uzviy bogʻliqdir. Raqamli xizmatlar koʻrsatishda band boʻlgan ishchi kuchining ortishi korxonalar sonining koʻpayishi, xizmatlar hajmining kengayishi, shuningdek, ichki va tashqi bozor talabining kuchayganligini anglatadi (4-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda AKT sohasida band bo'lganlar soni¹

2010-2016 yillarda ko'rsatkichlarning nisbatan barqaror o'sib borishi davlat tomonidan qabul qilingan ilk raqamlashtirish dasturlari (masalan, 2013-2020 yillardagi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish dasturi) bilan bog'liq. Bu davrda raqamli xizmatlar infratuzilmasi shakllanib, internetga kirish imkoniyatlari kengaya boshladi. Kompyuterlashtirish darajasi, axborot xavfsizligi, elektron hukumat elementlari joriy etilishi AKTga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Natijada, dastlabki yillarda kichik sur'atlar bilan bo'lsa-da, bandlikda ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Bunda AKT xizmatlarining nafaqat yirik kompaniyalarda, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va savdo sohalariga ham kirib borayotgani muhim rol o'ynadi.

2017-2019-yillarda bandlikda biroz sustlashuv kuzatilgan bo'lib, bu holat iqtisodiyotdagi strukturaviy o'zgarishlar, moliyaviy bozorlar beqarorligi, shuningdek, AKT sohasidagi yuqori texnologik yangilanishlarning mehnat resurslariga bo'lgan talabga vaqtincha ta'sir etgani bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2019-yilda sohadagi bandlik 61 ming nafardan 56 ming nafarga tushgan. Bunday qisqarish AKT xizmatlarida avtomatlashtirish va sun'iy intellekt elementlari joriy qilinishi bilan bog'liq bo'lib, ba'zi lavozimlarning zarurati kamaygan. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj kuchaygan, ammo mehnat bozorida ular yetishmagan. Bu esa qisqa muddatli bandlik pasayishiga sabab bo'lgan.

2020-yilda pandemiya tufayli global iqtisodiy inqiroz O'zbekiston AKT bozoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Karantin cheklovlari ko'plab korxonalarining faoliyatini chekladi, IT-yo'nalishidagi loyihalar vaqtincha to'xtatildi yoki moliyalashtirish qisqartirildi. Aynan shu yilda bandlik darajasi eng past nuqtaga - 56 ming nafarga tushgan. Biroq bu holat qisqa muddatli bo'lib, pandemiya davlatning raqamli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirgan holda keyingi yillarda keskin o'sishga asos yaratdi. Masofaviy xizmatlar, onlayn to'lovlar, elektron ta'lim va telemeditsina

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari www.stat.uz

kabi sohalarga ehtiyoj ortdi, bu esa 2021-yildan boshlab bandlikning barqaror o‘shishiga turtki berdi.

2021-2024 yillarda axborot-kommunikatsiya sohasida band bo‘lganlar sonining keskin oshganligi davlat siyosatining faollashgani, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining¹ bosqichma-bosqich hayotga tadbiiq etilayotgani va IT-Parklar faoliyatining kengaygani bilan izohlanadi. Xususan, 2021-yilda bandlar soni 70 ming, 2023 yilda 90 ming, 2024-yilda esa 98 ming nafarga yetgan. Bu O‘zbekistonda IT infratuzilmasining keskin kengaygani, xorijiy investitsiyalarning ko‘paygani, ta’lim orqali malakali kadrlar tayyorlanayotgani va elektron hukumat xizmatlarining keng joriy etilayotganidan dalolat beradi. Eksportga yo‘naltirilgan IT xizmatlarining hajmi oshgani bu sektorda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda raqamli hukumat tizimini rivojlantirish va raqamli xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar berayotganini ko‘rsatdi. Xususan, “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi tomonidan raqamli platformalar, elektron xizmatlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish orqali davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi va ochiqligi sezilarli darajada oshgan. My.gov.uz portali orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar sonining ortishi, foydalanuvchi murojaatlarining ko‘payishi va xalqaro reytinglardagi ijobiy o‘zgarishlar mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

ERP tizimlari, sun‘iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini joriy etish operatsion xarajatlarni qisqartirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratgan. Natijada davlat xizmatlari ko‘rsatishda byurokratik jarayonlar qisqarib, aholining davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchi mustahkamlangan. Elektron xizmatlarning kengayishi fuqarolarga masofadan turib, qulay va shaffof tarzda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

AKT sohasida bandlikning ortib borishi ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotganidan dalolat beradi. IT infratuzilmasining kengayishi, IT-Parklar faoliyatining rivojlanishi, raqamli xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishi va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit natijasida yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. Bu esa nafaqat xizmatlar bozori kengayishiga, balki yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari raqamli xizmatlar samaradorligini yanada oshirish uchun ayrim ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, hududlar o‘rtasidagi raqamli infratuzilma tafovutlarini kamaytirish, qishloq joylarda internet qamrovini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, davlat xizmatlarida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

kengroq foydalanish, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish hamda kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish zarur.

Kelgusida raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda eksportga yo'naltirilgan IT xizmatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va raqamli platformalarni rivojlantirish orqali davlat xizmatlari samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa O'zbekistonning xalqaro raqamli reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyul O'RQ-630-son “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4910391>
5. Kenjabaev A.T. va boshqalar. Elektron biznes asoslari: O'quv qo'llanma. - T. “Iqtisod-moliya”, 2008. - 276 b.;
6. Копачев А. А. Электронная коммерция как фактор инновационного развития деятельности предприятия: автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - Санкт-Петербург.: 2009. - 19 с.
7. Поеров А.С. Совершенствование системы электронной коммерции в России: автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 27 с.
8. Самойлов А.М. Электронная коммерция в системе современного бизнеса: диссертация на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2004. - 161с.
9. Teriz N. The impact of e-commerce on international trade and employment. - Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2011.
10. <https://lex.uz/uz/>
11. <https://e-gov.uz/>
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari www.stat.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**